



ЎЗМУ ХАБАРЛАРИ

ВЕСТНИК НУУз

АСТА NUUZ

МИРЗО УЛУГБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

**ЖУРНАЛ
1997
ЙИЛДАН
ЧИҚА
БОШЛАГАН**

**2020
1/2/1**

**Ижтимоий-
гуманитар
фанлар
туркуми**

Бош муҳаррир:

А.Р. МАРАХИМОВ – т.ф.д., профессор.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ғ.И. БОТИРОВ – ф-м.ф.н.

Таҳрир хайъати:

Сагдуллаев А.С. – т.ф.д., проф.

Аширов А.А. – т.ф.д., проф.

Баллиева Р. – т.ф.д., проф.

Маликов А.М. – т.ф.д., проф.

Юсупова Д.Ю. – т.ф.д., проф.

Муртазаева Р.Ҳ. – т.ф.д., проф.

Мўминов А.Г. – с.ф.д., проф.

Ганиева М.Ҳ. – соц.ф.д., проф.

Мадаева Ш.О. – ф.ф.д., проф.

Мухаммедова Д.Г. – псих.ф.д.

Рўзиев Р.Ж. – с.ф.д., проф.

Тўхтаев Х.П. – ф.ф.н., доц.

Болтабоев Ҳ. – фил.ф.д., проф.

Маматов А. – фил.ф.д., проф.

Сиддиқова И.А. – фил.ф.д., проф.

Джумабаева Ж.Ш. – фил.ф.д., проф.

Ширинова Р.Х. – фил.ф.д., проф.

Масъул котиб: **З. МАЖИД**

ТОШКЕНТ – 2020

МУНДАРИЖА

Тарих

Allanazarov S. Qadimgi Xorazmliklar yashagan geografik hudud hamda ularning antropologik tuzilishi.....	3
Гаффаров Ш., Равшанов Ш. Из истории политики переселения населения Туркестана (вторая половина XIX - начала XX века).....	7
Ирискулов О. XIX асрнинг охири – XX аср бошларида самарканд аҳолисининг миллий таркиби ва диний ҳаётидаги ўзгаришлар.....	12

Фалсафа. Педагогика. Методика. Социология

Avazmatova M., Qodirova Sh. Classroom management strategies and effective usage of teacher interventions.....	15
Akratova N. New technologies in teaching foreign languages and their application in english lessons.....	20
Ауанасова А. Факторы общественного согласия и единства в Казахстане.....	24
Goipova S., Azimova M. Students' difficulties indevelopment of listening skills in learning foreign languages.....	34
Gofurova S., Matholikova A., Rahmatova Z. The role of information and communication technologies in teaching process of foreign languages in higher establishments.....	38
Боймуродов А. Умумий ўрта таълим тизимида информатика ва ахборот технологиялари фанини ўқитишнинг инновацион кластер модели.....	42
Дуланов Б., Хайдарова Ж. Ёшлар орасида тадбиркорлик муҳити ва маданиятини шакллантириш – миллий ўзликни англаш омили сифатида.....	46
Жабборов Ф. Кимёвий ўқув-белгили моделларининг дидактик функциялари.....	53
Жалолова П. Кредит-модул тизимида “физика” фани машғулотларини ақт асосида ташкил қилиш методикаси.....	58
Zarzasov Sh. O'zbekistonda masofaviy ta'limdan foydalanishning SWOT tahlili.....	62
Истамова Н. Организационно – педагогические условия развития билингвизма у детей дошкольного возраста.....	67
Кунгирова Ш. Халқ ўйинларининг баркамол авлод тарбиясидаги роли.....	71
Қодиров М. Шарқ билан Ғарбнинг анъанавий-фалсафий мулоқоти ва унинг глобаллашув шароитидаги баъзи жиҳатлари.....	74
Қўнғиров И., Исмоилов К. Сиёсий маданият ва ахлоқий тарбия уйғунлиги ижтимоий тараққиёт мезони.....	79
Kasimov F. Modern methods and approaches of assessing knowledge and skills in information technology classes.....	83
Муминова М., Набиев Ў., Махмудова М. Экологик билим ва кўникмаларни шакллантиришда педагогик технологиялар ва анъанавий дарс усулларини табиий фанларда қўллаш.....	87
Муратова Ш. Ўсмир ёшидаги ўтил болаларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ижтимоий жиҳатлари.....	91
Мухитдинова М. Умумий ўрта таълим битирувчиларини тил материалларига масофавий ўқитишнинг методик асослари.....	95
Nazarova N. Yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishning konseptual asoslari.....	101
Oblokulova M. Using stories in teaching english to young learners.....	105
Оманова Г. Мактабгача таълим тизимида таълим сифати менежментини такомиллаштириш.....	111
Пирманова Г. Содержание внеаудиторных занятий по изучению историко-культурных памятников Англии.....	115
Пўлатов Ш. Маҳатма Ганди фалсафасида “қуч ишлатмаслик” гоёси.....	119
Раззакова Н. Оила – қўш устунли айвон тимсолида.....	123
Рахматуллаева Д. Профессионал таълим муассасалари ўқувчиларида тадбиркорлик компетенциясини шакллантириш тамойиллари.....	127
Саидкулов Н. Ёшлар сиёсий маданиятини ривожлантиришда таълим-тарбия тизимининг ўрни.....	131
Saipov Z. The United States policy in the Kyrgyz republic.....	137
Saidakhmedova S. Specific features of using authentic materials in teaching foreign languages.....	141
Султанов Р., Юсупов М. Таълимда математика фанини ўқитишдаги муаммолар ва уларнинг ечимида ахборот коммуникация технологияларининг аҳамияти.....	144
Suyunova N. Til ta'limida integrativ yondashuvni tashkil etishda sayohat darslarining ahamiyati.....	147
Khakimova G. Developing students' creative abilities in organizing fine arts lessons in schools.....	152
Ходжиева Д. Инновационные технологии развивающего профессионального образования по углубленному изучению студентами гуманитарных предметов педагогических дисциплин.....	156
Худаярова Д. Современные инновационные технологии в профессиональной подготовке будущих учителей.....	159
Хуррамов А., Ражабов Ж. Умумий ўрта таълим муассасаларида информатиканинг вазифатари ва мазмуни.....	163
Эрназаров Д. Сиёсий толерантлик тамойилларининг давлат сиёсатидаги роли ва аҳамияти.....	167

Филология

Adizova O., Abdullayeva N. Aziz Kayumov – the owner of encyclopedic knowledge.....	171
Barotova M. Original style in literary translation.....	172
Давлатова А. Абдулла Орипов поэтик тафаккурида Навоий адабий меросининг таъсири.....	176
Niyazova M. The use of methodological tools in the folk riddles of English and Uzbek literature.....	180
Хайдарова И. Морфологик hodisalar va ularning tilshunoslikda o'rganilish holati.....	184
Каримов Р. Тижорий матнда функционал белгининг роли.....	189
Қодирова Б. Фонетик терминларнинг қиёсий-типологик таҳлили (ўзбек ва козоқ мактаб дарсликлари асосида).....	192
Мансурова М. Muxtor Avezovning ijodkor obrazini yaratish mahorati.....	196
Мухитдинова Н. Муҳаммад Ғозий ижодида орифона қарашлар талқини.....	199
Рустамов И. Комиклик турлари тадқиқи.....	203
Рустамова Ш. Европа таржима назарияси тараққиётининг хронологик таснифи.....	207
Султанов Т. Муҳаммад Султон Валадининг адабий меросини ўрганиш масалалари.....	210
Худойбердиева Г. Инглиз болалар адабиёти: Жоан Роулингнинг “Гарри Поттер” романлар тўплами ва асарнинг дунё болалар адабиётида тугган ўрни.....	215
Юсубова Р. Метафоралар лисоний-маданий феномен сифатида.....	219

YOSHLARDA RAQOBATBARDOSHLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

Nazarova N.J. *

REZYUME

Maqolada yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishning sotsial omillari tahlil etilgan. Bunda bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari, hukumat tomonidan yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoiylik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish kabi vazifalarning qo'yilishi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar ko'rsatilgan. Shu bilan birga yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishning etnogenezi, o'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan mavzuga doir maqollar kontent tahlili amalga oshirilib, bu masalada sharq mutafakkirlarining qarashlari tahlil etilgan. Yoshlar raqobatbardoshligining ijtimoiy omillarini tadqiq etgan psixolog va sotsiolog olimlar nazariya hamda modellari keltirilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishning amaliy ahamiyatiga doir ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: shaxs raqobatbardoshligi, sotsial omil, xalq og'zaki ijodi, ehtiyoj, ijtimoiy harakat, intellektual salohiyat.

KIRISH. Taraqqiyot tendensiyasi rivoji shuni ko'rsatadiki, hozirgi davrda jamiyatning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillari ichida yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish muhim sanaladi. Shu sababli yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish dolzarbdir. Bu borada Prezident SH.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jamiyatimizda aholi, ayniqsa, yosh yigit-qizlarimizning ma'naviy va ma'rifiy saviyasini doimiy yuksaltirish – birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Shu bois, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oya asosida, yoshlarni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoiylik, axloqiy fazilatlarini shakllantirish – o'ta sharaflil vazifadir"[1]. Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan munosabat yangi bosqichga ko'tarilganligini amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ham kuzatishimiz mumkin.

Ayniqsa, so'nggi yillarda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan huquqiy-meyoriy hujjatlarning takomillashtirilishi, yoshlarga jamiyat hayotining barcha jabhalarida o'zini keng namoyon qilish imkoniyatlarini bermoqdaki, buni O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonunida belgilangan quyidagi asosiy yo'nalishlari misolida ham ko'rishimiz mumkin, bular: yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash; yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash; yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish; yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash; yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash; yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish; iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish; yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish; yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish va b. [2].

ASOSIY QISM. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan anglashimiz mumkinki, bugungi kun yoshlari uchun hukumatimiz tomonidan keng imkoniyatlar yaratishga intilish amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, yaratilayotgan shart-sharoitlar orqali ifodalanmoqda. Negaki, yoshlar o'ziga xos ijtimoiy demografik guruh sifatida mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ko'prog'ini tashkil etishini inobatga olsak, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlash, ularga o'z intilish va qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, jamiyat va davlat rivojiga munosib hissa qo'shishlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar o'z navbatida istiqbolda, albatta, o'z samarasini berishi shubhasizdir. Biroq bu yaratilayotgan imkoniyatlardan qay darajada foydalanish esa bevosita yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishning sotsial omillariga ham bog'liq ekanligini e'tiborga olish lozim. Shu boisdan ham yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishning sotsial omillarini tadqiq etish muhim sanaladi.

Yoshlar raqobatbardoshligining ijtimoiy asoslari A.Maslou[4] va S.Alderferning ehtiyojlar iyerarxiyasi modeli[3] bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda "shaxsning raqobatbardoshligi deganda, bu individning tan olinishi, sotsiumdagi mavqei, hurmat-e'tiborga ega bo'lishi, o'zini namoyon qilish istagi, shuningdek insonning biologik, ruhiy va shaxsiy salohiyati, kasbiy va ijtimoiy darajaga ega bo'lishi tushuniladi"[5]. Aynan yoshlarning kasbiy salohiyat darajasi, bu istiqbolda kasbda o'zini namoyon qilish vositalarini o'zlashtirishi, shuningdek, jamiyat va ijtimoiy guruhlardagi mavqeiga mos ravishda o'zining ijtimoiy faoliyatini iyerarxiyaviy jihatdan tashkillashtirilishi subyektlarning raqobatbardoshligini belgilaydi. Bu borada Forobiy "Yoshlar yuqorida aytib o'tilgan narsalar: kasb-hunar, ish tajriba, jahd va g'ayratga ega bo'lganlari va shu narsalarni o'z vujudlarida singdirganlaridan so'ng ularni asta-sekin egallay boradilar hamda yuqorida aytib o'tilgan fazilatlarini aniqlab borib, nazariy bilimlarning hammasida mantiqiy fikrlash yo'lini ishlatishga odatlanadilar. Shu tartibda bolalarga o'rgatish yo'li bilan ular kamolga yetguncha ana shu fazilatlar aniqlanadi va tarbiya qilinadi"[16.284-285] – deya ta'kidlab, yoshlardagi raqobatbardoshlik sifatlarini o'rgatish va tarbiyalash yo'li bilan shakllanishiga urg'u beradi.

Yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishning sotsial omil genezisini belgilash maqsadida kontent analiz usuli yordamida o'zbek xalq

* Nazarova N.J. – Toshkent temir yo'l muhandislari instituti kata o'qituvchisi

maqollarining psixosomatik tahlilini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Negaki, arxaiik tafakkur tarzining namunasi sifatida xalq og'zaki ijodi namunalari yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishga ta'sir etuvchi atrof-muhit, oila, ta'lim-tarbiya kabi ma'naviy-ma'rifiy mazmunga ega hikmatlar ko'plab uchraydiki, bu esa masalaning ildizi ko'p yillik shakllangan ijtimoiy meyorlar bilan chambarchas bog'ligini ko'rsatadi. Faylasuf J.Tulenov o'zining "Qadriyatlar falsafasi" nomli monografiyasida: "Tarix qa'ridan, necha-necha o'tmish davrlardan bizgacha eson-omon yetib kelgan miflar, afsona va rivoyatlar, dostonlar, ertak, maqol va qo'shiqlar, o'tmishning shunchaki bir aks sadosi emas, balki xalq ko'nglidagi qayg'u-hasrat va shodlikning yo'ldoshi, uning bilim qomusi, uning diniy va falsafiy kitobi hamdir" [14.96], deya ta'kidlaydi. Demak, agarda biz qadimgi mif, ertak, afsona va rivoyatlarining tizimli tahliliga yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishning sotsial omili nuqtai nazaridan yondashadigan bo'lsak, bu xalq og'zaki ijodining nodir namunalari zahirida xalqning muayyan ezgu maqsad va niyatlari, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga bo'lgan ijobiy yoxud salbiy munosabatlari, mehnat mashaqqatlarini yengillatirishga yo'naltirilgan qarashlar majmui, o'z farzandlarini baxtli va faravon turmush kechirishiga umid va ishonchning yuksakligi, shuningdek, mehnat unumdorligini oshirish va turmush sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan intilishlari o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Xalq og'zaki ijodi namunalari "inson oliy qadriyat" degan g'oyani ulug'lagan holda yoshlarni mustaqil hayotiga tayyorlash masalalariga, xususan ularda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratib kelganligi kuzatiladi. Masalan, "Anqov bo'lgan kishining, mazzasini yo'q ishining", "Bekor turguncha bekor ishla", "Bekorchilikdan beqarorlik tug'ilar", "Bekorchidan bemazza gap chiqadi", "Gapni oz so'zla, ishni ko'p ko'zla", "Gap bilan va'da berma, ish bilan dalda ber", "Ishchan baxtin ishdan izlar, Yalqov baxtin kishidan izlar", "Ishchan yerni yashnatar, Yalqov yerni qaqshatar" [18.11,28,72,76], kabi o'zbek xalq maqollarida yoshlarni mehnatsevarlik ruhida, ishchanlik kayfiyatida, kasb-hunar o'rganishga moyillik qilib tarbiyalash muhim ekanligiga urg'u beriladi, bu hikmatlar orqali yoshlarda raqobatbardoshlik fazilatlarini tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Sharq mutafakkir shoirlaridan biri Umar Xayyom bu xususida:

"Umring karvoni ko'p shitob o'tgusidir,

Bo'sh, behuda kunlar behisob o'tgusidir.

O'rgach, yana o'sguvchi giyohmassan, bas,

Har dam g'animat – jomu sharob o'tgusidir!" [15.54]

– deya umrning shitob bilan o'tishi jarayonlariga e'tibor qaratib, yoshlarga o'tayotgan har bir kundan samarali foydalanish lozimligini uqtiradiki, ya'ni bunda vaqtni behuda o'tkazmaslikka, har bir o'tayotgan vaqtni g'animat deb bilish va undan oqilona foydalanishga, ertaga afsus chekmaslik uchun o'qib, o'rganishga va jamiyat uchun foyda keltiruvchi inson sifatida faoliyat yuritishga chorlaydi.

Ma'lumki, xalq og'zaki ijodining nodir namunalari sifatida maqollarda yoshlarning jamiyatdagi qadri, sotsiumdagi obro'-e'tibori, uning mehnatsevarligiga, o'z ishining ustasi bo'lishga, har bir ishda tadbirkor, omilkor, udabburonlik kabi sifatlarining shakllanishiga bog'liqligiga alohida e'tibor qaratiladiki,

bu esa "Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar", "Ishning o'zini bilguncha – ko'zini bil", "Ishqda Tohir bo'l, Ishda mohir bo'l", "Epini topgan – elak bilan suv ichar", "Uddaburon ajdarga yer haydatadi", "Ishning qiyin tarafini o'yla, oson tarafini ko'zla" [18.78,163-164] kabi maqollarda o'z aksini topgan. Bu xususida Qadimgi Xitoy faylasufi Mo-szi "Insonga baho berishda uning niyatlari majmuini va harakatlari natijasini ko'rib chiqishi kerak" [17.58] - deya ta'kidlaydiki, bu fikr orqali yoshlarning, niyati qay darajada ezguligi uning harakatlarida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Jaloliddin Rumi hazratlari bu borada "...faraz qilaylikki, bir odam kunduz bo'lishini kutib, kechasi mijja qoqmad. Kunduzga qanday borilishini bilmasa ham, u baribir niyatiga yetishadi. Yoxud kechasi karvonning orqasiga qo'shilgan kishi qayerdan o'tganini, qayerga borganini va qanday yo'l bosganini bilmasa ham, tong otishi bilan ushbu harakatning samarasini ko'radi. Chunki u muayyan manzilga kelgan bo'ladi" [8.63-64] - deya yoshlarga o'z maqsadlari, orzu va intilishlari yo'lida tinimsiz harakat qilishi albatta biror bir pozitiv natijaga olib kelishini ko'rsatadi. Filolog olim, professor Najmiddin Komilov ta'kidlashicha esa, "odamzot qalbidagi orzularini nazar-pisand qilmaslik inson ruhiyatiga hurmatsizlikdir. Vaholanki, komil insonlar ta'limoti reallikni, moddiylikni inkor qilgani yo'q. Aksincha, ular moddiy ehtiyojlar bilangina chegaralanib qolmaslik kerak, deya ta'lim berishgan" [12.432-433]. Sotsiologiya tarixiga doir manbalardan ma'lumki [5.,10.,11.,19], keyinchalik bu qarashga hamohang tarzda nemis sotsiologi Maks Veber o'zining "Ijtimoiy harakat" nazariyasini yaratib, unda "Ijtimoiy harakat bu o'z ma'nosiga ko'ra, boshqalarning xulqi bilan bog'liq bo'lib, bu xulqni boshqalar xulqi bilan bog'langan. Bunda individ yoki guruh harakatiga oriyentir, ya'ni mo'ljal olishligi ana shu holda harakat anglashilgan yo'nalishda namoyon bo'ladi. Individlarning aqlli maqsadga qaratilgan harakatini tushunish va bu jarayonda psixologik ruhiy holatlarni e'tiborga olish muhim" [6.10] – deya ko'rsatib o'tgan.

"Dovon oshgan – cho'qqilarni ko'zlaydi" [18.81] bu maqol orqali ma'lum bir muvaffaqiyatga erishgan yoshlarni, erishgan yutuqlarga maxliyo bo'lib, o'z ustida ishlamasdan qotib qolmaslikka, balki harakat qilib bu muvaffaqiyatlarni yanada mustahkamlab olg'a intilishga va izlanishga, yangi marralarni zabt etishga chorlaydi. Bu borada xitoy faylasufi Konfusiy "Olijanob er to'qqiz narsa haqida o'ylashini kanda qilmaydi. Bular ravshan ko'rmoqlik, aniq eshitmoqlik, odob bilan muomala qilmoqlik, samimiy so'zlashmoqlik, ehtiyotkorlik ila harakatda bo'lmoqlik, qahr g'azab oqibatini yodda tutmoqlik, odillikni unutmaslik hamda imkoniyat tug'ilganda foyda olmoqlik" [17.35] – deya ko'rsatib o'tadi.

Demak, yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishda sotsial omil masalasi uzoq tarixiy o'tmishga borib taqaladiki, buni siyosatshunos olim N.Jo'rayev ta'biri bilan aytganda: "uni idrok etish, yuz bergan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar orqali muayyan davrning siyosiy va ma'naviy muhitini baholash, har bir davr kishilari ruhiyati, ma'naviy-axloqiy mezonlari, voqea-hodisalarga munosabatni o'rganish" [9.5] muhim hisoblanadi.

Agarda yoshlarda raqobatbardoshlikni shakllantirishga doir turli konseptual qarashlar ilgari surilganligini e'tiborga oladigan bo'lsak, bunda mutafakkir Ar-Roziy qarashlari ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ar-Roziy o'z asarlarida insondagi xushxulqlikni tarbiyalash va

va badxulqlikni yo'qotish yo'llari hamda usullari haqida yozadi, odamlarni aql bilan ish ko'rishga, hissiyotlarni jilovlay olishga, meyorida lazzatlanishga, lahzalik lazzatga umrini baxshida qilmaslikka chaqiradi. Lazzatning bir shartini u farovonlikda, ikkinchi shartini esa hamma narsaga aql bilan yondoshuvda ko'radi. Ar-Roziy insonning axloqan pok bo'lishida ijtimoiy omillar roliga ko'p e'tibor beradi, hamda odamni ijtimoiy faollikka, jamiyatga foyda keltirib yashashga chorlaydi. Uning fikricha, inson ijtimoiy mavjudot. U faqat insoniy jamiyatdagina axloqiy yuksaklikka, baxt va farovonlikka erishadi"[7.34].

O'z qarashlarida o'sha davrning tub ziddiyatlari, uning yutuqlari va kamchiliklarini, pozitiv va negativ tomonlarini o'z asarlarida ifodalab bera olgan alloma Abu Nasr Forobiy "Inson o'zining intilishi qanday ekanligini va foydali narsalardan qaysi biriga intilishi zarurligini bilolmaydi, intilishning chegarasi va bu chegara aniqlanganmi, natijasi bormi, yo'qmi unga noma'lumdir. Ammo biz insonning eslatib o'tilgan istalinuvchi maqsadlarning sog'lomligiga erishishga intilishini bilamiz"[16.73] – deb ko'rsatib, yoshlar ma'lum bir maqsadlarini amalga oshirishda albatta ustoz ko'magiga yoki hikmatlarga tayanish maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi.

Yuqorida zikr etilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirish masalasi tadqiqotlar orqali o'rganish muhim amaliy ahamiyatga ega. G'arb olimlari tomonidan olib borilgan bir qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida korporatsiyalar va sarmoyalar emas, balki ijodkor, tasavvur olami keng va intellektual salohiyatli yoshlar asosiy rol o'ynaydi.

Yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarining (bilim, kompetensiya, ijodiy salohiyat va b.) shakllanishi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni (shaxsning o'zini o'zi anglashi, shaxs omilining ustuvorligiga erishish, shaxsning psixofiziologik parametrlari va b.) rivojlanirishga, jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblangan qarashlar, g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar, nazariy modellar yaratilishi uchun xizmat qiladi.

XULOSA. Demak, xulosa qilib quyidagi fikrlarni bildirish mumkin:

1. Hozirgi davrda ulkan o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan jamiyatimiz tomonidan qo'yilayotgan talablarga munosib bo'lgan yoshlar raqobatbardoshligini o'rganishning konseptual va nazariy asoslarini tavsiflash va tahlil etish lozim;

2. Yoshlar raqobatdoshligining funksional ahamiyatini aniqlash va ijtimoiy asoslarini tadqiq etish maqsadga muvofiq;

3. Yoshlarda raqobatbardoshlik sifatlarini shakllantirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalangan holda kontent tahlilini amalga oshirish lozim;

4. Yoshlarda raqobatdoshlik sifatlarini shakllantirishga qaratilgan konseptual g'oya va fikrlarni tahlil etish orqali raqobatbardoshlikning funksional ahamiyatini asoslash;

5. Jamiyatdagi yoshlarning raqobatbardoshligini o'lchash ijtimoiy jihatdan ahamiyatli hisoblanib, bunda yoshlarning biologik, ijtimoiy va intellektual sathlarni e'tiborga olgan holda mehnat salohiyati iyerarxiyasini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги “Олий Мажлисга Мурожаатномаси” - <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
2. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни // “Халқ сўзи” газетаси, 15 сентябрь 2016 йил, №182-сон.
3. Alderfer С.Р., Existence, Relatedness, and Growth; Human Needs in Organizational Settings, New York: Free Press, 1972.
4. Maslow A. Motivation and Personality. NY: Harper, 1954. Contents. Second Ed. NY: Harper, 1970. Contents. Third Ed. NY: Addison-Wesley, 1987.
5. Normurodov B., Normurodova G. Sotsiologiya tarixi. –Toshkent: Tafakkur, 2010. – 112 b.
6. Weber M. Wirtschaft und Gesellschaft. – Köln; Berlin, 1964. –P.10.
7. Абу Бакр ар-Рази. Духовная медицина. - Душанбе: Ирфон, 1992. С.-34.
8. Жалолиддин Румий. Ичиндаги ичиндадур: Фалсафий-маърифий асар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. - Б.63-64.
9. Жўраев Н. Тарих фалсафаси: Тушунча, моҳият ва сиёсат. – Тошкент: “Маънавият”, 1999. - Б. 5.
10. История социологии в Западной Европе и США. – Москва: НОРМА-ИНФРА М, 1999. – 576 с.
11. Капитонов Э.А. Социология XX века. Ростов-на-Дону: «Феникс», 1996. – 512 с.
12. Комялов Н. “Тасаввуф”, Тошкент, “Мовароуннахр” – “Ўзбекистон”, 2009, -Б.432-433.
13. Туктаров, Ф. Р. Конкурентоспособность личности в современном трансформирующемся обществе: социально-философский анализ. Автореф. дисс. ... доктора философских наук.- Ростов-на-Дону, 2007.– 46 с. <http://www.dslib.net/soc-filosofia/konkurentosposobnost-lichnosti-v-sovremennom-transformirujuwemsja-obwestve.html>

14. Туленов Ж. Қадриятлар фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 236 б.
15. Умар Хайём Тириклик тилсими.- Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012. – Б. 54.
16. Форобий Абу Наср Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 320 б.
17. Ҳақиқат манзаралари. 100 мумтоз файласуф / Тўпловчи ва таржимон: С.Жўраева. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015. - 400 б.
18. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар махзани – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2018. – 480 б.
19. Энциклопедический социологический словарь /Под ред. Осипова Г.В. – Институт социально-политических исследований РАН, 1995. – 1000 с.

РЕЗЮМЕ

В статье анализируются социальные факторы формирования конкурентных качеств у молодежи. В нем изложены основные приоритеты государственной молодежной политики в Узбекистане на сегодняшний день, задачи правительства по воспитанию молодежи в духе преданности Родине, формированию инициативы, самоотдачи, моральных качеств и проводимых реформ в этой области. Были также проанализированы мнения о конкурентоспособности молодых людей, в том числе признание личности, социального статуса, уважения, стремления к самовыражению, а также биологического, умственного и личностного потенциала, профессионального и социального статуса молодежи. В то же время был проанализирован контент-анализ статей об этногенезе формирования конкурентоспособных качеств у молодежи, примеры узбекского фольклора и взгляды восточных мыслителей по этому вопросу. Представлены теории и модели психологов и социологов, изучивших социальные факторы конкурентоспособности молодежи. В статье также выдвигаются научные выводы о практической значимости формирования конкурентоспособности качеств у молодежи.

Ключевые слова: конкурентоспособность личности, социальный фактор, фольклор, потребность, общественное движение, интеллектуальный потенциал.

RESUME

The article analyzes the social factors of the formation of competitive qualities in young people. It outlines the main priorities of the state youth policy in Uzbekistan today, the government's task of educating young people in the spirit of devotion to the motherland, the formation of initiative, dedication, moral qualities, and the ongoing reforms in this area. Opinions on the competitive qualities of young people are also analyzed, including the recognition of the individual, his position in society, respect, desire to express himself, as well as the biological, mental and personal potential of young people, aspects such as professional and social status have been explored. At the same time, the content analysis of articles on the ethnogenesis of the formation of competitive qualities in young people, examples of Uzbek folklore, and the views of oriental thinkers on this issue were analyzed. Theories and models of psychologists and sociologists who have studied the social factors of youth competitiveness are presented. The article also puts forward scientific conclusions on the practical significance of the formation of competitive qualities in young people.

Keywords: personal competitiveness, social factor, folklore, needs, social movement, intellectual potential.